

TIL - MILLAT KO‘ZGUSI

Muhammadnur Murodxonov

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti,

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik 2-bosqich talabasi.

Elektron pochta: murodkhonovmukhammadnur@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada, tilimizning dolzarbligi va uning ahamiyati haqida va shu bilan birga, ilimizni mustahkam va turli xil illatli so‘zlardan ozoda saqlagan holda avlodlarga yetkazishimish va uning sofligini asrashimiz lozimligi haqida so‘z boradi. Tilning xususiyatlari haqida so‘z borganda, uning naqadar keng ma’noda chuqur va millat-elatlarning ajralmas bir qismi ekanligi namoyon bo‘ladi. Til - millat ko‘zgusi, deb bejiz aytilmagan. Xalqimizning necha asrlik boy tarixi, ko‘hna va serqirra madaniyati o‘zbek tili ta’sirida shakllanganligini ko‘rishimiz mumkin. O‘zbek tiliga berilgan ta’riflar va ularning tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so‘zlar: Millat, nutq, madaniyat, ma’naviyat, axloq, Farmon, Qonun, xalqaro, sivilizatsiya, meros, ona tili.

KIRISH

Til millat taraqqiyotining hayotiy omili bo‘lib, u yillar davomida sayqallanib boradi va yaxlit bir mujassam holatga keladi. Mamlakatning nomoddiy merosi hisoblanib, har bir xalqning etnik-madaniy, mifologik g‘oya va kechinmalarini ifodalaydi. Mamlakatning o‘ziga xos belgilaridan tashqari davlatning milliy tili, bu mamlakatni noyob va betakror jihati sifatida bir tomondan, mamlakatning o‘ziga xos milliyligi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, xalqning shaxsiy merosini ko‘rsatadi. Tilning e‘zozligi haqida so‘z borar ekan, til bu ajdodlar va avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy ko‘prikn hosil qiladi. Tillar aloqa vositasi bo‘lishdan tashqari, madaniy ahamiyatga ega va ularning yo‘qolishi, o‘zlarining noyob ajdodlar an’analari, ogohligi, merosi va xotiralarini yo‘qotishga to‘g‘ri keladi. Ona tili saqlab qolishning eng to‘g‘ri usullaridan biri bu tildan yozma va og‘zaki shaklda kundalik foydalanishni davom ettirishdir.

Til sivilizatsiyalar asosi bo‘lib, jamiyat a’zolarini bir-biriga bog‘lovchi vosita ham hisoblanadi. Boshqa tillarni o‘rganish qiziqarli bo‘lishi mumkin, ammo ona tilisini chuqur o‘rganmagan va tahlil qilmagan har qanday shaxs, u yoki bu xorijiy tillarni o‘rganishda pand yeyishi tabiiydir.

Bugungi kunda Yer yuzida yashovchi 4 mingga yaqin xalq vakillaridan iborat 8 milliardga yaqin aholi taxminan uch mingta, shevalar bilan hisoblaganda, 5621 ta til va shevada so‘zlashadilar. Hozirgacha ulardan 500 tasigina o‘rganilgan, xolos. Har uch tildan bittasining yozuvi bo‘lmay, faqat og‘zaki nutq shakliga egadir. Jahondagi 1400 ta tilning yo‘qolib ketish xavfi bor. Dunyo tillaridan faqat 40 tasigina og‘zaki va yozma jihatdan

mukammal shakllanib bo‘lgan, deb hisoblanadi. Mazkur 40 til ichida o‘zbek tili ham bor¹.

ASOSIY QISM

O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganiga o‘ttiz uch yil to‘ldi. Bu qisqa vaqt ichida tilimizda juda katta o‘zgarishlar, yuksalishlar ro‘y berdi. O‘zbek tilining ikki tomli izohli lug‘atidan siqib chiqarib tashlangan ma‘naviyat, ma‘rifat, qadriyat, ibo, hayo va boshqa bir qancha o‘zligimizni anglatib turadigan so‘zlarimiz, istiqlolimiz sharofati ila nashr etilgan besh tomli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga kiritilgan. Bu tarixiy voqea bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Tilimizning boshqa tillarga qaraganda qanchalik boy til ekanligini XV asrdayoq Hazrat Navoiy o‘zining “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari orqali isbotlab ketgan. U kishining “Tilga ixtiyorsiz, elga e‘tiborsiz”² degan fikrlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q, balki biz uchun dasturulamal vazifasini o‘tab kelmoqda. Ammo bu fikrga barchaning birdek amal qilmasligi tanamizdagi og‘ir va yuqumli kasallikka o‘xshab bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta‘biri bilan aytganda: “O‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma‘naviy boylik, buyuk qadriyat” ekanligini har bir inson qalbdan his qilmog‘i darkor³.

YUNESKO ma‘lumotlariga ko‘ra, bugun dunyoda 6 ming 909 til mavjud bolib, ulardan atigi 200 ga yaqini davlat tili yoki rasmiy til maqomiga ega⁴. Ular qatorida ona tilimiz – o‘zbek tilining borligi har birimizning qalbimizni faxr-iftixorga to‘ldiradi. O‘zbek tilining nufuzi bugungi kunda xalqaro maydonda ham ortib bormoqda. Bir qator xorij mamlakatlaridan kelib, yurtimizda o‘zbek tilini o‘rganib ketayotganlar ham ko‘payib bormoqda. Turli mamlakatlardagi o‘quv yurtlarida o‘zbek tili o‘rganilmoqda.

Bu esa, har birimizning qalbimizda faxr-iftixor tuyg‘ularini uyg‘otadi, uning hayotimizda o‘rnini topishi o‘zligimizning namoyon bo‘lishidir. Ayni chog‘da orzu-umidlarimiz, o‘zligimiz bo‘y korsatadigan qalbimiz oynasi hamdir. Shunday ekan, ona tilimizga doimo hurmat va e‘tiborda bo‘lib, uning jamiyatimizdagi mavqeyini yuksaltirishga har birimiz o‘z hissamizni qo‘shmog‘imiz kerak. Zero, til bor ekan, millat barhayot, uning istiqboli nurli va charog‘ondir. Tarix silsilasida tilimiz ne-ne qarshiliklarga uchramadi. Har safar ularni engib o‘tib, oldimizda o‘z go‘zalligini namoyon qildi. Tarix guvohki, mana bir necha ming yillardan beri ona tilimiz hanuzgacha o‘zining ahamiyatini yo‘qotmay kelmoqda. O‘zbek tilining eng ahamiyatli jihati shundaki, u shunday shirali, har bir quloqqa xush yoqadi, eshitgan inson entikib ketadi. Jonajon tilimiz, shoir Mirtemir aytganidek, yoshligimizdanoq jon-u qulog‘imizga singib ketgan. Onalarimiz aytgan allalari-yu, bobobuvarimizdan eshitgan ertak, hikoya, rivoyat va masallar orqali yuragimiz tub-tubigacha kirib borgan, o‘z navbatida ona tilimizga, ona vatanimizga muhabbat uyg‘otgan.

¹<https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=http://notiq.uz/archives/5312&ved=2ahUK Ewid75G7oo6JAxXOHXcKHxcMcwQFnoECDUQAQ&usg=AOvVaw1wnA7Uc0AvEmrJJeSF0jEr>

²Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 11-tom. Xamsa. Saddi Iskandariy. T.: “Fan”, 2002. B-246.

³Prezident Sh. Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktyabrdagi nutqi: <https://president.uz/oz/lists/view/2953>

⁴<https://ocm.iccrom.org/documents/unesco-world-atlas-languages>

O‘zbekistonning har bir fuqarosi o‘z ona tilisini sevadi, uni hurmat qiladi va e‘zozlaydi. Chunki aynan shu til orqaligina har qanday millatning qay tarzda yashayotganligini, rivojlanayotganligini, yoki aksincha, orqada qolayotgan va qashshoqlashib borayotganligini bilishimiz mumkin. Shuning uchun ham bejizga: “Til - millat ko‘zgusi”, - deyishmaydi. Til - millat ko‘zgusi, ma’naviyat izhoridir. Shu bois ona tilimizni hurmat qilish, uning boy imkoniyatlarini o‘rganish barchamizning asosiy burchimiz bolishi lozim. O‘zbek tilining rivoji, taraqqiyoti, teran tadqiqi va tashviqi borasida hali ko‘p ishlarni qilishimiz zarur.

Borligimiz, davlatimiz ramzi bolgan bebaho boyligimizga mas‘ullik hissi hech birimizni hech qachon tark etmasin. Milliy tilimizga, ona tilimizga bolgan e‘tibor, nafaqat bugungi kunda, balki tarixning barcha davrlarida ham dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Shu o‘rinda bobolarimiz aytgan quyidagi purma‘no fikrlarni eslaylik: “Har bir millatning dunyoda borligini korsatadurgon o‘yinayi hayoti til va adabiyotdir. Milliy tilni yo‘qotmak millat ruhini yo‘qotmakdur”⁵.

Darhaqiqat, tilning ahamiyati, uning mavjudligi har qanday yurt, millat taraqqiyotini belgilab berishi shubhasiz. Ayniqsa, bugungi globallashuv dunyo xalqlarining turmush tarzi umumiylik kasb etgan bir davrda yuqoridagi so‘zlarning zalvori ikki hissa ortadi. Til buyuk ne‘matdir, har bir millat o‘z tilini e‘zozlasa, qadrlasa, taraqqiyoti uchun jon kuydirsa, u til go‘zal, betakror va buyuk bolib qolaveradi!

Har bir xalq aziz va muqaddas bo‘lgan o‘z tilini asrash, rivojlantirish, jozibasini to‘la namoyon etish uchun harakat qiladi, chunki unda xalq tarixi, milliy qadriyatlari, madaniyati ifodalanadi. Millatlarni millatlardan ajratib turuvchi asosiy belgilardan biri ham tildir. Dunyoda har bir xalqning o‘z tili uning bebaho boyligi, iftixori, najoti hisoblanadi. Hikmatli so‘zlar, sheru dostonlar, qo‘shiqlar avvalo biror bir millatning ona tilida dunyoga keladi. Millat bor ekan, uning tili ham yashaydi, tili yashar ekan u millat boshqa millatlar orasida o‘z nufuzi, obro‘sigaga bo‘ladi.

MUHOKAMA

Tilga hurmat – bu xalqqa hurmat. O‘z ona tiliga ega bo‘lmagan xalq mamlakat bo‘lolmaydi. Tilning egasi xalq, ammo xalqning bitta vakili loqayd bo‘lsa ham milliy til sofligiga putur yetadi. Til davlat timsoli, mulki hisoblanadi. Til madaniyatiga amal qilinmasa, milliy madaniyatga dog‘ tushadi. Shu sababli, bu ulkan hodisaning tub mohiyatini kelajak avlod ongiga singdirish, ona tiliga bo‘lgan muhabbat va sadoqatini yanada mustahkamlash borasida olib borilayotgan ishlar ko‘lami yil sayin kengayib bormoqda. Binobarin, o‘zini o‘zbek millatining farzandiman, deb bilgan har bir shaxs ona tilimizga e‘tiborli bo‘lishi, uning sofligini asrab-avaylashni muqaddas burchi deb bilishi shart. O‘zbek tilining Vatanimizda davlat tili sifatida amal qilinishining huquqiy asoslari qonunan belgilab qo‘yilgan. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni

⁵ M.Murodxonov. (2024). Mahmudxo‘ja Behbudiy – Millat Fidoyisi. *Ta‘lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi*, 19(4), 163–167. <https://Web-Journal.Ru/Index.Php/Ilmiy/Article/View/4616>

uch tamoyilga: umumiylik, majburiylik va huquqiy kafolatga asoslanadi. Darhaqiqat, davlat tilining mustahkam huquqiy maqomi belgilab qo'yilgani tilimizning boy imkoniyatlaridan keng foydalanishga yetarlicha zamin yaratib, mamlakatimizda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishi barobarida o'zbek tilining erkin muomalada bo'lishi uchun zarur shart-sharoitni yaratib berdi. Dunyoda taniqli mamlakat bo'lish uchun biz davlat tilining maqomini ko'tarishga erishishimiz lozim. So'nggi yillarida mamlakatimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi tilimiz taraqqiyotida ham muhim o'zgarishlar yuz bermoqda. O'zbek tilining xalqaro miqyosda obro'yi oshib, faol muloqot vositasiga aylanib bormoqda. Turli darajadagi rasmiy uchrashuv va muzokaralarda tilimiz keng qo'llanayotgani, xorijdagi qator ta'lim dargohlarida, ilmiy muassasalarda o'zbek tili markazlari tashkil etilib, ularda ona tilimizni o'rganishga qiziquvchilar soni ko'payib borayotgani buning yaqqol dalilidir.

Ammo bugun hayotimizga globallashuv jarayonlari tobora kirib kelmoqda. Vaholanki, globallashuv jarayonining eng katta xavfi u eng avvalo tilga ta'sir qiladi. Bunday vaziyatda o'z ona tili taqdiriga befarq bo'lgan, uni asray olmagan xalq millat sifatida o'zligini yo'qotishi hech gap emas. Chet tillarini o'rganishga bo'lgan e'tibor ortib borayotgani sayin ona tilimizni asrash masalasiga negadir sust yondasha boshladik. Hatto ayrim yosh oilalarda ota-onalar farzandlari bilan turli chet tillarida muloqot qilayotganlariga guvoh bo'lyabmiz. Ayniqsa boshqa tillardan o'zbek tiliga kirib kelayotgan so'zlarning sanog'i yo'q. Shunday sharoitda o'zbek tilida aytishga qulay bo'lgan so'zlar o'rniga chetdan kirganini qo'llashga odatlanib borayotganimizni nima deb izohlash mumkin? Axir, bu ahvolda qanday qilib o'zbek tilini ardoqlash haqida gapirish mumkin?

NATIJA

Davlatimiz rahbarining BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida insoniyat oldida turgan eng muhim masalalar xususida o'zbek tilida nutq so'zlagani tilimizning xalqaro miqyosdagi mavqeini mustahkamlash yo'lida yana bir qadam bo'ldi. Zotan, ona tili – millatning ruhi, uning or-nomusi, ma'naviy qiyofasi, orzu-umidlarning namunasidir⁶.

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishining huquqiy asoslarini bir qancha joyda ko'rishimiz mumkin. Bunda, Yurtimizning eng ustuvor qonun hujjati – konstitutsiyamizning 4-moddasidan boshlab, bir qancha qonun va qonun osti hujjatlarida o'z aksini ko'rishimiz mumkin. "Davlat tili haqidagi" Qonunning 2-moddasida "O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi Respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o'z ona tilini qo'llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi", deb yozilgan. O'zbekistonda yashovchi boshqa millat vakillarining tiliga ham huquqiy maqom berilganligi Qonun hujjatida "o'z ona tilisi" haqida gap ketayotganidan ko'rishimiz mumkin. Xalqning ma'naviy olami dastlab uning tilida aks etadi.

Ahamiyatli tomoni, bugungi kunda xorijiy davlatlardagi 65 ta oliy o'quv yurtida

⁶ O'zbekiston Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida nutq matni:
<https://president.uz/oz/lists/view/6679>

o‘zbek tili va adabiyoti o‘rganilmoqda, ushbu sohada ilmiy izlanish va tadqiqotlar olib borayotgan chet ellik olimlar safi tobora kengaymoqda. Ushbu qutlug‘ bayram arafasida qabul qilingan “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yana-da rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon hamda davlatimiz rahbarining O‘zbek tili bayrami munosabati bilan xalqimizga yo‘llagan tabriklari o‘zbek tili va adabiyotini, milliy madaniyatimizni yana-da ravnaq toptirishga qaratilgan amaliy harakatlar bilan uyg‘un va hamohangdir.

Binobarin, mazkur hujjatda o‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e‘tiborini tubdan oshirish, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta‘minlash, O‘zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o‘zbek tilini o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalish va istiqboldagi vazifalar belgilab berildi.

Farmonga muvofiq, 2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi hamda asosiy yo‘nalishlari tasdiqlandi. Qolaversa, mazkur hujjatda 2025-yilgacha davlat maktabgacha ta‘lim tizimida o‘zbek tilli guruhlar qamrovini kengaytirish, yangi darslik va qo‘llanmalar, elektron dasturlar yaratish, xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida o‘zbek tilini o‘rgatuvchi markazlar sonini ko‘paytirish singari muhim vazifalar o‘rin olgan⁷.

XULOSA

Yuqoridagilarni xulosa qiladigan bo‘lsak, tilimizga bo‘lgan e‘tibor yildan-yil kuchayib bormoqda. Nafaqat davlat arboblari balki, xalqning o‘zida ham tilga nisbatan e‘tibor va hurmat ko‘rsatilayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Lekin, bularning ham sonini va sifatini ko‘paytirishimiz va doimo sergak bo‘lishimiz lozim. Tilimizni mustahkam va turli xil illatli so‘zlardan ozoda saqlagan holda avlodlarga yetkazishimiz va uning sofligini asrashimiz kerak. Tilning xususiyatlari haqida so‘z borganda, uning naqadar keng ma‘noda chuqur va millat-elatlarning ajralmas bir qismi ekanligi namoyon bo‘ladi. Til - millat ko‘zgusi, deb bejiz aytilmagan. Xalqimizning necha asrlik boy tarixi, ko‘hna va serqirra madaniyati o‘zbek tili ta‘sirida shakllangan. Ulug‘ shoirimiz Alisher Navoiy shu tilda bebaho asarlar yaratib, dunyoni lol qoldirgan.

O‘zbek tilini rivojlantirish faqat tilshunoslarning ishi emas, balki mana shu yurtda yashab, non-tuzini totib yashayotgan har bir insonning vazifasi hisoblanadi. Qaysi soha vakili bolishimizdan qat‘iy nazar, davlat tilining rivoji uchun hissa qo‘shish Yurtimiz oldidagi farzandlik burchimiz desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

⁷ A. Haitov. Til — millatning ma‘naviy boyligi. Xalq so‘zi, 2020 21-oktyabr. B-6.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A. Haitov. Til — millatning ma’naviy boyligi. Xalq so‘zi, 2020 21-oktyabr. B-6.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 11-tom. Xamsa. SaddiIskandariy. T.: “Fan”, 2002. B-246. <https://ocm.icrom.org/documents/unesco-world-atlas-languages>
3. O‘zbekiston Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida nutq matni: <https://president.uz/oz/lists/view/6679>
4. <https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=http://notiq.uz/archives/5312&ved=2ahUKEwid75G7oo6JAxXOHXcKHxcMcbMcwQFnoECDUQAQ&usg=AOvVaw1wnA7Uc0AvEmrJIeSF0jEr>
5. M.Murodxonov. (2024). Mahmudxo‘ja Behbudiy – Millat Fidoyisi. Ta’lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi, 19(4), 163–167. <https://Web-Journal.Ru/Index.Php/Ilmiy/Article/View/4616>
6. Prezident Sh. Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktyabrdagi nutqi: <https://president.uz/oz/lists/view/2953>